

RAQAMLI VOSITALARNING INGLIZ TILIDA YOZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Ergashev Mirsaid Baxtiyorovich

Talaba: Sharofova Nargizaxon

Samarqand Davlat Chet tillari instituti 5-kurs talabasi

Gmail: nargizaxonmeyliyevna@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tili o'qitish jarayonida raqamli vositalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Unda raqamli texnologiyalarning turlari, ularning yozish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni va ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, yozish ko'nikmasini shakllantirishda zamonaviy raqamli platformalar, ilovalar va onlayn manbalarning o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodkorligini hamda tahliliy qobiliyatini rivojlantirishdagi roli yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** raqamli vositalar, ingliz tili, yozish ko'nikmasi, ta'lim texnologiyalari, onlayn ta'lim, interaktiv o'rganish.*

KIRISH.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ingliz tili o'qitishda turli raqamli vositalar keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, yozma nutqni o'rgatishda raqamli texnologiyalar o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular yordamida talaba mustaqil yozish, tahrirlash, o'z fikrini ifoda etish va xatolarini aniqlash ko'nikmalarini egallaydi. XXI asrning texnologiya va internet sohasidagi jadal taraqqiyoti uni raqamli davr sifatida tavsiflash imkonini bermoqda. Mazkur davrda tilning kommunikativ vosita sifatidagi funksiyasi kengayib, u global axborot almashinuvi, ta'lim jarayonlari, biznes amaliyoti hamda zamonaviy kasblarning shakllanishida asosiy omillardan biriga aylandi.

Raqamli texnologiyalar turli millat va madaniyat vakillari o'rtasida yaqin kommunikativ aloqalarni yo'lga qo'ydi. Dunyodagi istalgan hudud bilan muloqot qilish imkoniyatining kengayishi xorijiy tillar, ayniqsa ingliz tilining ahamiyatini yanada oshirdi. Ingliz tili nafaqat ilmiy sohada, balki dasturlash, biznes va texnologiya kabi ko'plab yo'nalishlarda yetakchi til sifatida mustahkam o'rin egalladi. Raqamli vositalar ingliz tilini o'rganish jarayonini soddalashtirib, o'rganuvchilarga elektron lug'atlar, turli mavzularga oid videodarslar, ta'limiy platformalar hamda sun'iy intellekt bilan muloqot qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Raqamli o'quv platformalari shaxsiy yoki o'qituvchi bilan hamkorlikda o'qish mumkin bo'lgan integrativ onlayn ta'lim muhiti sifatida namoyon bo'ladi. Ularda interaktiv o'yinlar, videodarslar, test topshiriqlari va so'rovnomalar orqali o'quv jarayonini individuallashtirish va o'quvchilar bilimini baholash imkoniyati mavjud.

Bransford J.ning ta'kidlashicha, texnologiyaning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi o'quv faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikriga ko'ra, texnologik vositalar o'qituvchilarga real hayotdan olingan autentik materiallardan foydalanish imkonini berib, o'quvchilarni vizuallashtirish, tahlil qilish va hamkorlikda bilim egallash jarayoniga faol jalb etishga xizmat qiladi [1].

Internet va ijtimoiy tarmoqlar global kommunikatsiyada ingliz tilining ustun mavqega ega bo'lishiga sabab bo'ldi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahon internet kontentining 60 foizdan ortig'i ingliz tilida yaratilgan bo'lib, ilmiy maqolalar va akademik tadqiqotlarning aksariyati ham aynan shu tilda chop etiladi. Yirik xalqaro kompaniyalar faoliyatida ingliz tilining asosiy ish tili sifatida qo'llanishi uning global miqyosdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Shunday ekan, ingliz tilini o'rganish zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishish va xalqaro maydonda faol ishtirok etishning muhim omili sanaladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, raqamli vositalar terminining izohiga to'xtalib joiz deb bildik.

Raqamli vositalar – bu axborotni yaratish, saqlash, tahrirlash, uzatish va taqdim etish imkonini beruvchi texnologik vositalardir. Ta’lim jarayonida ular o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi interaktiv aloqani mustahkamlaydi, shuningdek, darslarni zamonaviy va samarali tashkil etishga xizmat qiladi [2].

Raqamli vositalarning asosiy turlari quyidagilardir:

Kompyuter va planshetlar – matn yozish va tahrirlash uchun asosiy vosita;

Mobil ilovalar (Grammarly, QuillBot, Google Docs, Microsoft Word Online) – yozuvdagi xatolarni avtomatik tahlil qilib, to’g’rilashga yordam beradi;

Ta’lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Edmodo) – topshiriqlarni onlayn topshirish, tahrirlash va baholash imkonini yaratadi;

Onlayn lug’atlar va tarjimonlar (Cambridge Dictionary, Linguee, DeepL) – so’z boyligini kengaytiradi;

Audio va video vositalar – yozish mavzularini tushunishga va tahlil qilishga yordam beradi.

Yozish ko’nikmasi — bu o’quvchining o’z fikrini mantiqan to’g’ri, aniq va grammatik jihatdan to’g’ri shaklda yozma tarzda ifoda etish qobiliyatidir. Ingliz tilida yozish malakasini shakllantirish uzoq va izchil jarayon bo’lib, u o’quvchidan grammatika, imlo, so’z boyligi va mantiqiy fikrlashni talab etadi [3].

Yozish ko’nikmasini rivojlantirishda quyidagi usullar muhim:

- ☐ muntazam yozma mashqlar (insho, hisobot, xat yozish);
- ☐ namunaviy matnlarni o’rganish va tahlil qilish;
- ☐ o’zaro tahrirlash (peer review) faoliyatini yo’lga qo’yish;
- ☐ raqamli platformalarda yozuv mashqlari orqali o’qitish.

Raqamli vositalardan foydalanish talabalarning ingliz tili grammatik yozuv ko’nikmalarini quyidagi yo’nalishlarda rivojlantirmoqda:

1. Xatolarni avtomatik tahlil qilish: platformalar yozilgan matndagi grammatik xatolarni avtomatik aniqlaydi va ularni to’g’rilashni o’rgatadi;

2. Mustaqil o’rganish imkoniyati: talaba istalgan joyda va vaqtda mashq bajarish orqali o’z ko’nikmasini rivojlantira oladi;

3. Teskari aloqa tizimi: raqamli vositalar tezkor javob qaytarib, talabaning o’zini tahlil qilishiga yordam beradi;

4. Motivatsiyani oshirish: interaktiv va o’yin asosidagi mashg’ulotlar orqali til o’rganishga qiziqish ortadi [4].

Raqamli ta’lim muhiti sharoitida o’qituvchilarning raqamli kompetensiyalari ularning kasbiy faoliyatini takomillashtirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. IT sohasidagi yetarli bilim va raqamli ko’nikmalarning cheklanganligi xorijiy til o’qituvchilarining o’quvchilarning ehtiyojlariga mos yuqori samarali multimediya resurslari uchun mos dasturiy ta’minotni tanlash jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo’lishi mumkin [5].

Grammatik yozuv ko’nikmalariga ta’siri

Grammatik yozuv — bu ingliz tilida to’g’ri tuzilgan gaplar, zamonlar, yordamchi fe’llar, modal fe’llar, predlog va artikllarni to’g’ri qo’llashni o’z ichiga olgan muhim ko’nikmadir [3]. An’anaviy usullar orqali grammatikani o’rganish ko’pincha nazariy bilimlar bilan chegaralanib qolgan bo’lsa, raqamli vositalar bu jarayonni interaktiv shaklga o’tkazadi. Masalan, talaba Grammarly orqali yozgan inshosida o’z xatolarini tahlil qilib, nima sababdan xato ekanligini o’rganadi. Bu jarayon metakognitiv o’rganishni — ya’ni “o’ylab yozish” ko’nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, BBC Learning English, British Council LearnEnglish kabi manbalar talabalarga haqiqiy til materiallari asosida grammatikani o’rganish imkonini beradi. Raqamli interfaol vositalardan foydalanish esa ta’lim oluvchilarni faollikka undaydi, ta’limiy jarayonni dinamiklashtirish, vizuallashtirish va individuallashtirish imkonini beradi.

Bunday yondashuvlar orqali o’quvchilarning ta’limga bo’lgan motivatsiyasi ortadi, bilimlarni ongli ravishda chuqurroq o’zlashtirishga erishiladi. Shu bilan birga, o’quvchining o’quv materialiga nisbatan reflektiv yondashuvi, o’zining o’rganish strategiyalarini tanlashi va tahlil etishi – metakognitiv faollikning rivojlanganligidan dalolat beradi. Mazkur maqola ingliz tilini o’rganishda metakognitiv strategiyalarni raqamli

interfaol vazifalar yordamidarivojlantirish masalasini pedagogik-nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganishga qaratilganbo‘lib, zamonaviy til ta’limida metakognitiv yondashuv asosida o‘quvchilarni mustaqil vafaol bilim egallovchilarga aylantirish imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli vositalar ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ular o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish, ijodkorlik, muloqot va o‘zini baholash qobiliyatini kuchaytiradi. Shu boisdan, raqamli texnologiyalarni ingliz tili ta’lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish — zamonaviy o‘qitishning muhim talabi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bransford J., Brown A., Cocking R. How people learn: Brain, mind, experience, and school. Washington, DC: National Academy Press; 1999. 384 p.
2. British Council. (2022). Digital tools for language learning.
3. Kumar, S. (2020). Impact of Digital Learning Tools on Writing Skills in ESL Contexts. TESOL Journal.
4. Rashidova, M. (2023). “Oliy ta’limda raqamli texnologiyalarning samaradorligi.” Ta’lim va Innovatsiya jurnali, №4.
5. Redeker K., Poonie J. European framework for the digital competence of teachers: DigCompEdu [Internet]. Brussels: Joint Research Center, European Union; 2017 [cited 2021 Jan 15]